

**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,**  
iqtisod fanlari doktori, professor,  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
E-mail: [sadr\\_71@mail.ru](mailto:sadr_71@mail.ru);

**Ismatov Xolbuta Begmatovich,**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi  
E-mail: [XBI@gmail.com](mailto:XBI@gmail.com)

## **O‘ZBEKISTONDA SOLIQ SIYOSATI STRATEGIYASI VA TAKTIK YO‘NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

### **Аннотасија**

*Davlatning ichki siyosatining mazmunida markazlashgan pul fondlarini shakllantirish va ularni taqsimlash bilan munosabatlar asosiy rol o‘ynaydi. Bu esa davlatning iqtisodiy siyosatining eng muhim tarkibiy qismi bo‘lgan soliq siyosati bilan bog‘liqdir. Davlatning har qanday sohadagi faoliyatining yo‘nalishi maqsadga qaratilgan bo‘ladi. Shu jihatdan olganda maqsadga erishish esa ma‘lum bir muddatlarni o‘z ichiga olgan ijtimoiy va iqtisodiy rejalar, ularni realizasiya qilish uchun aniq chora-tadbirlar, ijrochi organlar va faoliyatning uyg‘ulashuvini talab qiladi va bu o‘z navbatida davlat siyosati deb izohlanadi. Bu munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta‘minlash esa davlatning faoliyatida ma‘lum bir yo‘nalishdagi jarayonni-soliq siyosatini talab qiladi. Soliq siyosatida iqtisodiy munosabatlardan tashqari sosial, psixologik, madaniy hatto tashqi munosabatlarni qamarab oladiki, bu soliq siyosatining boshqa ichki va tashqi siyosatlarining o‘zaro chambarchas tarzda mavjud bo‘lishini ko‘rsatadi. Bunda esa soliq siyosatining strategiyasi va taktik yo‘nalishlarini to‘g‘ri belgilab olish va amalga oshirish muhim sanaladi. Mazkur maqolada esa ana shu masalalarga keng e‘tibor berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** davlat, moliyaviy boshqaruv, soliq, byudjet, davlat byudjeti, pul fondi, markazlashtirilgan pul fondlari, soliq tushumlari, soliq siyosati, soliq siyosati strategiyasi, soliq siyosati taktikasi, soliq stavkasi, soliq imtiyozi, soliq elementlari, davlat siyosati, soliq tushumlari.

## **ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СТРАТЕГИИ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ И ТАКТИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ**

### **Аннотация.**

*Отношения с формированием централизованных денежных средств и их распределением играют ключевую роль в содержании внутренней политики государства. Это связано с налоговой политикой, которая является важнейшей составляющей экономической политики государства. Направленность деятельности государства в любой сфере носит целенаправленный характер. В этом смысле достижение цели требует согласования социально-экономических планов с определенными сроками, конкретными мерами по их реализации, исполнительными органами и деятельностью, а это, в свою очередь, трактуется как государственная*

политика. Обеспечение связи между этими отношениями требует проведения определенного направления в деятельности государства - налоговой политики. Помимо экономических отношений, налоговая политика включает в себя социальные, психологические, культурные и даже внешние отношения, что свидетельствует о тесной связи налоговой политики с другими внутренними и внешними политиками. При этом важно правильно определить и реализовать стратегию и тактические направления налоговой политики. Данная статья посвящена этим вопросам.

**Ключевые слова:** государство, управление финансами, налог, бюджет, государственный бюджет, денежный фонд, централизованные денежные фонды, налоговые поступления, налоговая политика, стратегия налоговой политики, тактика налоговой политики, налоговая ставка, налоговые льготы, налоговые элементы, государственная политика, налоговые поступления.

## ISSUES OF IMPROVING THE TAX POLICY STRATEGY AND TACTICAL DIRECTIONS IN UZBEKISTAN

### **Abstract**

*Relations with the formation of centralized funds and their distribution play a key role in the content of the domestic policy of the state. This is due to the tax policy, which is the most important component of the economic policy of the state. The direction of the activity of the state in any sphere is purposeful. In this sense, the achievement of the goal requires the coordination of socio-economic plans with certain deadlines, specific measures for their implementation, executive bodies and activities, and this, in turn, is interpreted as state policy. Providing a connection between these relations requires a certain direction in the activities of the state - tax policy. In addition to economic relations, tax policy includes social, psychological, cultural and even external relations, which indicates the close relationship of tax policy with other domestic and foreign policies. At the same time, it is important to correctly determine and implement the strategy and tactical directions of tax policy. This article is devoted to these issues.*

**Key words:** state, financial management, tax, budget, state budget, monetary fund, centralized funds, tax revenues, tax policy, tax policy strategy, tax policy tactics, tax rate, tax incentives, tax elements, public policy, tax revenues.

### **Kirish**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli liberallashib, o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda soliq siyosati muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Soliq siyosati amalda davlat boshqaruvining boshqa unsurlari: pul-kredit siyosati, baxo siyosati kabilar bilan birgalikda mamlakatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy soxalariga faol ta'sir ko'rsatadi. Davlatning soliq siyosati mazmunan keng va boshqa iqtisodiy-moliyaviy siyosat turlari bilan bog'langanligi uning murakkab jarayonlarni qamrab olishini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan

takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi farmonlarining qabul qilinishi O'zbekistonning yangi mazmundagi strategik maqsadlarni belgilab bergan soliq siyosatini belgilab berdi. Soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirish, soliq yukini kamaytirib borish, adolatli soliq tamoyillariga asoslangan soliq tizimini yanada rivojlantirib borish yo'nalishida sezilarli islohotlar amalga oshirildi. Shu bilan birga bunday soliq siyosatining samaradorligini ta'minlashda, hali o'z yechimini kutayotgan ilmiy-amaliy muammolar ham mavjud bo'lib turibdiki, mazkur maqolada ana shu muammolar va ularning yechimlari xususida so'z boradi [2,3].

### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili**

Davlatning soliq siyosati va uni amalga oshirishning strategik va taktik yo'nalishlarining tadqiqi bilan bog'liq ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirib kelingan. Soliq siyosati va uning strategiyasini aniqlash hamda samarali amalga oshirishning nazariy-uslubiy masalalari bo'yicha juda ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, S.Kuznets, A.V.Anikin, A.A.V.ronov, V.A.Kashin, S.V.Barulin, R.Valinurov, E.Denisov, V.N.Yedronova, M.Keyns Dj., T.V.Kuklina, F.Kene, Mill Dj.S., K.R.Makkonell, N.G.Lukyanova, A.Smit, D.Rikardo, A.Perov, A.Tolkushkin, A.Pezenti, Yu.Yu.Petrinin, M.I.Panov, P.Samuelson, B.A.Rayzberg, D.G.Chernik va shu kabi olimlar tomonidan davlat soliq siyosatining umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan talqin qilingan.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan E.F.Gadoyev, T.S.Malikov, N.H.Xaydarov, B.A.Normatov, S.S.Azimov, S.Elmirzayev, N.B.Ashurova, J.J.Urmonov, I.M.Niyazmetov, S.K.Xudoykulov, F.I.Isayev, Z.A.Abdullayev, U.X.Normurzayev, O.Abduraxmonov, Sh.Toshmatov, N.Ashurova, M.Almardonov, A.Jo'rayev, T.Malikov, B.Toshmurodova, Q.Yahyoyev, N.Xaydarov, A.Islamkulov, F.Mirzayev, B.Azimov, N.Qo'ziyeva, A.Toshqulov, M.Xaydarov, J.Zaynalov, Yu.Yusupovlarning ilmiy tadqiqotlarida Respublikamiz soliq siyosatining u yoki bu qirralari tegishli mavzu doirasida tadqiq qilingan, ilmiy xulosalar berilgan va ayrim ilmiy tavsiyalar keltirilgan.

Jumladan, rus olimlaridan klassik iqtisodiyot nazariyasi vakillaridan A.Smit, D. Rikardo, U.Petti, Dj.S. Mill, F.Kenelar davlat soliq siyosatida davlat g'aznasining daromad manbalari va ularni taqsimlash bilan bog'liq nazariyalarni ilgari surgan bo'lsa, keyingi davrning soliq nazariyachilar hisoblangan, M.Keyns Dj., P.Samuelson, B.A.Rayzberg, D.G.Chernik., A.Perov, A.Tolkushkin, A.Pezenti, Yu.Yu.Petrinin, M.I.Panovlar esa soliq siyosatining mazmuni va uning strategik muammolari bilan bog'liq ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqan. Mahalliy olimlardan, professorlar A.Jo'rayev, J.Zaynalov, N.Haydarov, Q.Yahyoyevlar va shu kabi ko'plab olimlar tomonidan soliq siyosati, strtategiyasi, taktikasi va konsepsiyalari haqida ilmiy yondoshuvlar keltirilgan.

Biroq, Davlatning soliq siyosati va uning strategik va taktik maqsadlarini ishlab chiqish va uni amalga oshirishga yo'naltirilgan yaxlit ilmiy tadqiqot ishlari juda kam oshirilganki, bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida soliq siyosatini

amalga oshirish bilan islohotlar samarasini ta'minlash bilan ilmiy tadqiqotlarga ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj saqlanib qolinmoqda.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Davlatning soliq siyosati va uning strategik va taktik maqsadlarini ishlab chiqish va uni amalga oshirishga yo'naltirilgan mazkur ilmiy maqolada ilmiy tadqiqotning umumiy va alohida olingan tadqiqot metodlaridan foydalanilishi samara beradi. Albatta dialektik metod orqali davlat soliq siyosati elementlarini o'zaro bog'liqlikda qarab tadqiq qilinsa, nazariy mushohada hamda mantiqiy yondoshuv asosida davlat soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishga oid ilmiy yondoshuvlarni ilmiy-nazariy tahlil qilinadi. Davlat soliq siyosati strategiyasi va taktikasi yo'nalishlarini sintez va tahlil usullarga asoslanib ilmiy xulosalar olinadi, deduksion yoki induksion yondoshuvga asosan davlat soliq siyosati strategiyasi va taktikasiga ta'sir etadigan omillarni quyidan yuqoriga va aksincha tartibda tadqiq etish imkonini beradi.

### **Tahlil va natijalar**

Ta'kidlash lozimik, siyosat zamirida ko'pchilikning manfaatlariga asoslangan davlat faoliyati turadi. Davlatning bunday faoliyatining soliqlarga oid qismi esa o'z navbatida soliq siyosatining o'zagi tashkil etadi. Soliq siyosatining o'zagi esa ta'kdlanganidek, taqsimot munosabatlariga borib taqaladi. Milliy daromadni taqsimlash, uning uchun majburiy to'lovlar vositalarini(soliqlarni) joriy etish, uni undirish va bu jarayonning borishini tartibga solib turish hamda uni doim takomillashtirib borish kabi munosabatlarni taqozo qiladi. Bu munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash esa davlatning faoliyatida ma'lum bir yo'nalishdagi jarayonni-soliq siyosatini talab qiladi. Davlatning ichki siyosatining mazmunida markazlashgan pul fondlarini shakllantirish va ularni taqsimlash bilan munosabatlar asosiy rol o'ynaydi. Bu esa davlatning iqtisodiy siyosatining eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan soliq siyosati bilan bog'liq.


Har qanday iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayon bo'ladimi yoki voqeylik va hodisalar bo'ladimi albatta uning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari bo'ladi, xuddi shu singari tadqiqot obyektimiz bo'lgan soliq siyosatining ham bir qator ijtimoiy-iqtisodiy mazmunga ega asoslari ham mavjudki, ularni 1-rasmda keltirib o'tdik. Ularga ko'ra, davlatning soliq siyosatining iqtisodiy-ijtimoiy asoslari dastlab jamiyatning sohalar (ishlab chiqarish va noishlab chiqarish) o'rtasidagi nisbat munosabatlarning muvofiqliligi ta'minlash zarurligidan kelib chiqadi, vaholanki, buni ta'minlash esa, uning keyingi asosi- milliy daromadni taqsimlashni mutanosib amalga oshirish zarurligini keltiradi, o'z navbatida buni amalga oshirish esa, turli xil markazlashgan pul fondlarini tashkil etishni taqozo qiladi.

## **Davlat soliq siyosatining iqtisodiy va ijtimoiy asoslari**

Sohalar o'rtasidagi nisbat munosabatlarining

### **1-rasm. Davlatning soliq siyosatining iqtisodiy-ijtimoiy asoslari**

Albatta davlatning asosiy iqtisodiy maqsadi jamiyatning sohalar (ishlab chiqarish va noishlab chiqarish) o'rtasidagi nisbat munosabatlarning muvofiqliligi ta'minlashga qaratilgan bo'ladi, bunga erishish uchun esa, davlat turli xil: iqtisodiy, ijtimoiy, sosial hattoki siyosiy sohalardagi siyosatlarini amalga oshirish, bu siyosatlarni muvofiqlashtirgan holda milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashga harakat qiladi, vaholanki, bu barqarorlikning asosini esa, iqtisodiy barqarorlik tashkil etadi, uning faoliyatini ta'minlashda esa moliyaviy hamda uning tarkibiy qismi bo'lgan soliq siyosati muhim ehtiyoj bo'lib obyektiv ravishda yuzaga chiqadi.



**2-rasm. Davlat iqtisodiy maqsadi va soliq siyosati o‘rtasidagi uzviylik**

Har qanday iqtisodiy tizimda davlatning fiskal maqsadlaridan kelib chiqqan holda uning soliq siyosati doirasida strategik maqsadlari ham shakllantiriladi, uning aniq maqsadlari qisqa, o‘rta va uzoq muddatli davrlarga mo‘ljallar olinadi. Albatta, Sobiq ittifoqdagi soliq siyosatining strategik maqsadlari mustaqilikka erishgan O‘zbekiston soliq tizimida ma‘lum bir qismlari saqlanib qolingan bo‘lsada, O‘zbekistonning o‘zining milliy soliq siyosati strategik maqsadlari belgilab olindi va u ma‘lum bir ilmiy-amaliy va uslubiy jihatdan evolyusion rivojlanish yo‘lini bosib o‘tmoqda.

2016-yildan boshlab Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida iqtisodiy o‘shishning yangi omillarini faollashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarga asoslandi. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi doirasida soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma‘murchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantirish choralari kengaytirish kursi nazarda tutildi.

Islohotlarning dastlabki bosqichida soliq sohasida bir maromda iqtisodiy o‘shishga, ishbilarmonlik va investisiyaviy faollikni oshirishga, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar yig‘iluvchanligining zarur darajasini ta‘minlashga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar aniqlandi, xususan:

**birinchidan**, umumbelgilangan soliqlarni to'lovchilar uchun soliq yuki darajasining yuqoriligi, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimida soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi soliq yuki darajasidagi farqning sezilarliligi;

**ikkinchidan**, qo'shilgan qiymat solig'ini undirishning samarasiz tizimi, soliq to'lovchilarning aylanma mablag'larini jalb qiladigan, shuningdek, iste'mol mahsulotining oraliq va yakuniy qiymati qimmatlashishiga olib keladigan hamda yirik va kichik biznes o'rtasidagi kooperasiyaning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan majburiy to'lovlarning mavjudligi;

**uchinchidan**, soliq to'lovchilar tomonidan xodimlarning real sonini va mehnatga haq to'lash fondini yashirishga olib keluvchi mehnatga haq to'lash fondi soliq stavkalarining yuqoriligi;

**to'rtinchidan**, imtiyozlarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish bo'yicha ta'sirchan tizimning mavjud emasligi sababli sog'lom raqobatni ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, xo'jalik yurituvchi subyektlarni soliq va bojxona, shu jumladan individual xususiyatga ega bo'lgan imtiyozlar hisobiga qo'llab-quvvatlash amaliyotining keng tarqalganligi;

**beshinchidan**, davlat organlari va tashkilotlari o'rtasida axborot almashish mexanizmlarining, elektron soliq ma'muriyatchiligi hamda soliq nazoratini amalga oshirish shakl va uslublarining takomillashmaganligi;

**oltinchidan**, o'tkaziladigan nazorat tadbirlarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va insofli tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga aralashishlarni kamaytirishga to'sqinlik qiluvchi nazorat faoliyatini amalga oshirishda xavf-xatarlarni tahlil qilish va boshqarishning aniq tizimi yo'qligi;

**yettinchidan**, mahalliy soliq va yig'implarning ma'muriyatchiligi mexanizmlarining samarasizligi oqibatida ularning yig'iluvchanlik darajasi yetarli emasligi, shuningdek, ko'chmas mulk va yer uchastkalarini to'liq hisobga olish va qiymatini obyektiv aniqlashning mavjud emasligi.

Shunday qilib, mavjud tizimli muammolarni bartaraf etish, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida, shuningdek, keng jamoatchilik muhokamasi natijalari hamda Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki va xalqaro ekspertlarning tavsiyalaridan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari belgilandi, bu o'z navbatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmonida o'z aksini topdi [3].


So'nggi besh yil ichida mamlakatda "mutlaqo yangi soliq tizimi" yaratildi, shuningdek, yangi O'zbekiston ruhiga mos keladigan Soliq kodeksining yangi tahriri qabul qilindi. Mamlakatda keng ko'lamli islohotlar boshlanishi va yangi O'zbekiston qurilishi bilan soliq sohasi ham tubdan o'zgardi. O'sha paytda amaldagi Soliq kodeksi yangi talablarga javob bermasligi hammaga ayon bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o'zgartish va

qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni bilan qabul qilingan Soliq kodeksining yangi tahriri respublika hududida amalda bo‘lgan soliqqa tortish masalalarini tartibga soluvchi barcha amaldagi norma va qoidalarni takomillashtirish va tizimlashtirish orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiluvchi hujjat sifatida ishlab chiqilgan bo‘lib, soliq munosabatlari tizimida yagona qonunchilik bazasini yaratishga imkon berdi [1]. Ushbu chora soliq qonunchiligi sohasidagi qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar sonini sezilarli darajada kamaytirdi.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, davlat byudjeti va uning daromadlarini shakllantirishning barqarorligini ta’minlashga, soliq qonunchiligini soddalashtirishga, soliq munosabatlari sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va to‘qnashuvlarni bartaraf etishga, vijdonli soliq to‘lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan. Soliq kodeksining yangi tahririni ishlab chiqish jarayonida soliqlar sonini ularni birlashtirish, shuningdek o‘xshash soliq bazasiga ega bo‘lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, operasion xarajatlarni minimallashtirish orqali yanada optimallashtirish amalga oshirildi.


Yashirin aylanma darajasini pasaytirish, shuningdek zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish maqsadida elektron hisobvaraqa-fakturalar, onlayn NKM va virtual kassalar, tovarlarni markalash, shuningdek, soliq organlarini soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash va soya faoliyatini olib borish faktlari to‘g‘risida xabardor qiluvchi shaxslarni moddiy rag‘batlantirish tizimining to‘liq ishlashi bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. To‘liq bo‘lmagan 3-yil ichida elektron hisobvaraqa-fakturalar tizimining qamrov darajasi 100% gacha oshdi, bu 2019-yilga nisbatan 2022-yilda hajmi 6 baravar oshgan soliqqa tortiladigan tovar aylanmasining to‘liq qamroviga erishishga imkon berdi.

O‘zbekistonda soliq strategiyasi va taktikalarini ishlab chiqishning amaliy holatini tahlil qilish asosida umumiy va alohida olingan ilmiy xulosalar chiqarish bu boradagi ayrim mavjud muammolarni aniqlashga xizmat qilish bilan bir qatorda, ularning yechimlari bilan bog‘liq ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi. Ta’kidlash joizki, hozirgi vaqtda “soliq siyosati strategiyasi” atamasini tushunish muayyan davlat ta’limi doirasida jamiyat hayotining turli sohalarida asoslangan o‘rta va uzoq muddatli prognozlar asosida keng ko‘lamli murakkab jarayonlarni boshqarish qobiliyati bilan bog‘liq. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi noaniqlikning tashqi va ichki xavflarining kuchayishi va ichki xavflarining to‘planishi sharoitida soliq siyosatining vakolatli va istiqbolli strategiyasiga ega bo‘lish dolzarbligini ayniqsa ortib bormoqda. Strategiya davlat va biznesga doimiy o‘zgaruvchan tashqi va ichki sharoitlarda ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy maqsadlarga erishish uchun yangi murosali usullarni topishga imkon beradi.



**3-rasm. Strategiya rejasini ishlab chiqishning asosiy bosqichlari [4, B.144].**


Strategiyani ishlab chiqish vazifalarni amalga oshirish va belgilangan maqsadlarga erishish uchun ishlatiladigan bir qator tashkiliy harakatlar va boshqaruv yondashuvlarini o‘z ichiga oladi. Qo‘llash sohasini aniqlash, maqsadlarni belgilash, qisqa va uzoq muddatli vazifalarni aniqlash, maqsadga erishish usullarini aniqlash strategik rejani shakllantiradi. Missiya va ustuvorliklarni aniqlagandan, shuningdek, maqsad va vazifalarni shakllantirgandan so‘ng, soliq strategiyasini ishlab chiqish metodologiyasi amalga oshirishning asosiy bosqichlari majmuini o‘z ichiga oladi.



**4-rasm. Soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish ketma-ketligi algoritmi\***

Tashqi va ichki omillarni sinchkovlik bilan va har tomonlama tahlil qilib, kelishishdan o‘tib va rivojlanish strategiyasining eng maqbul variantini tanlagandan so‘ng, turli xil parametrlar va ko‘rsatkichlar yordamida yuqori sifatli monitoring va samarali ijro nazoratini ta‘minlash kerak. Belgilangan maqsadlarga erishish

monitoringi natijalarini baholash natijalariga ko'ra, taktik xarakterga, shuningdek parametrlar va ko'rsatkichlarga tegishli tuzatishlar kiritilishi mumkin.



### **5-rasm. Soliq sohasini tubdan isloh qilish yo'nalishlari**

O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining strayetegiyasini amalga oshirilishi natijasida bir qator ijobiy natijalarga erishilishiga asos bo'ldi. Respublikada adolatli, shaffof, uzoqqa mo'ljallangan va xalqaro andozalarga javob byera oladigan soliq tizimini yaratishga qaratilgan soliq islohotlari iqtisodiy, huquqiy jihatdan har tomonlama asoslangan hamda soliq to'lovchilar uchun qulay va manfaatli ekanligini ko'rsatmoqda. Birinchi navbatda, tadbirkorlik subyektlari va invyestorlar faoliyatini soliq sohasida kafolatlashning huquqiy asosi yaratilib, yangi Soliq konsyepsiyasi, Soliq kodyeksi va 150 dan ortiq qonun, Farmon, qaror va boshqa mye'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Tyeng raqobat sharoitini yaratish maqsadida 80 dan ortiq turli soliq imtiyozlari bekor qilindi. Individual imtiyozlar berish amaliyotidan voz kyechildi. Soliq yukini keskin pasaytirish maqsadida Soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi.

Nazariy talqin va amaliy tahlillar asoslanib bugungi kunda Respublikamiz soliq tizimida davlat soliq siyosatini ishlab chiqishda va uni strategik maqsadlarga muvofiq tarzda amalga oshirishda ayrim muammolar aniqlandi. Ular jumlasiga:

*birinchidan*, soliq to'lovchilarni ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olishda ularni segmentlashning nomukammalligi;

*ikkinchidan*, soliq to'lovchilarga keng yo'nalishlarda soliq xizmatlarini ko'rsatish (ayniqsa soliq rejimlarini tanlash, soliqlarni to'lashdagi hisobvaraqlari, muddatlarining ko'pligi) bo'yicha soliq organlarining ish qoidalarining takomillashmaganligi,

*uchinchidan*, soliq tizimining biznes va iste'molchilarning iqtisodiy yechimlariga nisbatan barqarorligi, shaffofligi va betarafligining yetarli (qonun bilan cheklanmagan faoliyat turlari bilan shug'ullanish mumkin bo'lsada, bank aylanmalari mos kelmasligi degan vaj bilan e'tirozlarning ko'pligi) bo'lmagan darajasini o'z ichiga olgan soliq siyosatining kamchiliklari;

*to'rtinchidan*, soliq imtiyozlari va preferensiyalarni taqdim etish amaliyotida aniq mezon, mexanizmlarning yo'qligi hamda individual imtiyozlar berishdan to'laqonli voz kechilmaganligi;

*beshinchidan*, soliq siyosatidagi yangiliklarni joriy etishda ijtimoiy shartnoma doirasida konsensusga erishish uchun institutlarning rivojlanmaganligi (ayniqsa kiritilayotgan yangiliklarni oldin ma'lum bir sohada ijobiy sinovdan o'tkazib keyin barchaga joriy etish o'rniga birinchi qadamdan hammaqamga nisbatan qo'llash amaliyoti to'xtamayotganligi);

*oltinchidan*, soliq ma'murchiligi vositasi sifatida yaratilgan yangi dasturiy mahsulotlarning murakkabligi, biznesni yangi sharoitlarga moslashtirish uchun ular bilan soliq to'lovchilar tomonidan batafsilroq o'rganish va bunga kadrlarini tayyorlash uchun yetarli vaqt yo'qligi;

*yettinchidan*, yashirin iqtisodiyot ko'lamini baholashning yagona usulining mavjud emasligi, soliq siyosati samaradorligini monitoring qilish va baholash tizimining nomukammalligi, shuningdek, ishbilarmonlik faolligiga, byudjetning daromad qismiga va pirovardida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ijodiy vektorining ustuvor maqsadlarini amalga oshirish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi kabi muammolarni kiritish mumkin.

### **Xulosa**

O'zbekistonda davlatning soliq siyosati va uning strategik va taklik yo'nalishlarini amalga oshirishdagi muammolarning yechimlari va mavjud mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

- yillik byudjet parametrlarini tasdiqlash va u orqali har yili ma'murchilikka kiritiladigan tez-tez o'zgarishlar o'rniga, o'rta va uzoq yillarga mo'ljallangan byudjet daromadlari, soliq siyosati strategiyasini tasdiqlab borish, bunda, yil davomida qabul qilinadigan qonun, farmon, qarorlar bilan soliq siyosati va ma'murchiligiga kiritiladigan har qanday qo'shimcha va yangiliklar yilning turli oylarida emas, faqat yilning boshidan (yoki 1 iyuldan kiritilishi) aniq o'zgarmas sanasini Soliq kodeksi bilan belgilab qo'yish, yangiliklarni dastlab ma'lum sohadan, undan keyin keng jabhada joriy etish;

- soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasini amalga oshirishda soliq yuki va soliq rejimlarini bixillashtirish, shuningdek, ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish;

- mahalliy byudjetlar mustaqilligini yanada oshirish, jumladan soliq turlaridan mahalliy byudjetlarga ajratmalarni yuqoridan pastga belgilab berishdan bosqichma-bosqich voz kechgan holda, quyi darajada vakolatini kengaytirish;

- soliq siyosati strategiyasini samarali realizasiya qilishda (yashirin iqtisodiyot ko'lamini jilovlashda)—keng jamoatchilikni jalb qilish, rag'batlantirish institutlarini yanada kengaytirish, shuningdek "shubhali operatsiya" vaji ostidagi tadbirkorlarga

bildiriladigan e'tirozlarni qonun normasi bilan aniq belgilab qo'yish;

- soliq ma'murchiligi strategiyasini amalga oshirishda –soliq organlari strukturasi raqamlashtirish natijalari bilan bosqichma-bosqich optimallashtirilish (qisqartirish);

- soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishda to'lov muddatlari va to'lov hisobvaraqlarini yagonalashtirish;

- soliq siyosati samaradorligini baholab borish va keng jamoatchilikka hisobdorlik institutini kengaytirish va shu kabi soliq siyosatining strategik va taktik mazmundagi choralarni amalga oshirish O'zbekiston soliq tizimida davlatning soliq siyosatining mazmunini ilmiy-amaliy jihatdan takomillashuviga xizmat qilishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda O'RQ-599-sonli "O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni // lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-son "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni // // lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi farmoni // // lex.uz
4. Борисовская И.В. Методология и методы научного исследования: Электронный ресурс: Учебно-методический комплекс / И.В. Борисовская. – Белгород, 2016. - С.104